



MUHAMMAD RIZO OGAHINYNING "RIYOZ UD-DAVLA"

ASARIDA XIVA HAYOTI

Ochildiyev Qobiljon Chori óg'li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Yaponshunoslik fakulteti talabasi

+998999823415

ochildiyevqobiljon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7714411>

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Muhammad Rizo Ogahiyning hayot faoliyati, unig Xorazm tarixida qoldirgan buyuk asarlari va "Riyoz ud-davla" asaridagi Xiva hayotining qaysi davrlardagi tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad R.O., saroy tarixchisi, mohir tarjimon, Ogahiy maktabi "Riyoz ud-davla" (Saodat bog'lari) asari, Xiva tarixi.

Annotation: In this article, the life activity of Muhammad Riza Agahi, the great works he left in the history of Khorezm, and the information about the periods of the life of Khiva in the work "Riyaz ud-Davla" are discussed.

Key words: Muhammad R.A., court historian, skilled translator, Ogahi School, "Riyaz ud-Davla" (Gardens of Happiness), history of Khiva.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнедеятельность Мухаммада Реза Огахи, великие труды, которые он оставил в истории Хорезма, а также сведения о периодах жизни Хивы в произведении «Рияз уд-давла».

Ключевые слова: Мухаммад Р.О., придворный историк, искусный переводчик, школа Огахи, «Рияз уд-Даула» (Сады счастья), история Хивы.

XIX asrda Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy edi. 1809 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tavallud topgan adib: "Biz Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirmiz", – deb yozgandi. Erniyozbek mirob 1812 yilda vafot qilgandan keyin Olloqulixon Shermuhammad ibn Avazbey mirob o'g'li Munisni mamlakatning bosh mirobi qilib tayinlaydi. Munis Ogahiyning amakisi bo'lib, otasi o'rnida Ogahiyga 1829 yilgacha g'amxo'rlik qilgan. Uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog'ida o'tdi va ulg'aygach Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko'rdi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek klassik musiqa hamda tarix fanini qunt bilan o'rgandi.





She'riyat olamida uning taxallusi Ogahiy bo'lib, lug'aviy ma'nosi - ogohman-sergakman demakdir. U mohir hattot bo'lib kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan.

Xiva xoni Olloqulixonning Xurosonga qilgan safarida vabo kasali tarqalib (1829) amakisi Munis vafot etdi. Olloqulixon Ogahiyning Munisni o'rniga miroblik vazifasiga tayinlaydi. Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan 20 dan ortiq asarlarni o'zbek tiliga o'girib tarjimashunoslik maktabini yaratdi.

Ogahiy o'z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug'murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiyning o'zbek tilida yozilgan "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni mavjud bo'lib, unda shoir yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she'rlarini ko'proq uchratamiz.

Ogahiy she'rlari orasida hukmdorlarga aytilgan qasidalar ham bor. Bu devondan g'azallar, mustazod, muxammas, musaddaslar o'rin olgan. Devonda 18 ming misra she'r va 83 muxammas jam qilingan bo'lib, uning kirish qismida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo'lgan:

"Riyoz ud-davla" ("Davlat ishlari", 1825-1842), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i", 1846-1855), "Jom'e ul-voqeoti Sultoniy" ("Sultonlar voqealari to'plami", 1856-1865), "Gulshani davlat" ("Davlat gulshani", 1865-1872), "Shohidi iqbol" (1872).[1, - p 1]

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo'lib, Navoiydan keyin eng "ko'p va xo'b" she'r aytgan shoirlardandir.

Ogahiydan boy ijodiy meros qolgan. U madrasada o'qib yurgan paytlaridayoq "Bayozi mutafarriqai forsiy" nomli bayoz tuzadi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g'azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki muxammasini qo'shgan. Ogahiy ustozini Munis boshlab qo'ygan, ammo, tugallab ulgurmagan tarixiy "Firdavsul-iqbol" asarini oxiriga yetadi.

Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Shayx Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Hiloliyning "Shoh va gado", Kaykovusning "Qobusnoma", Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Jomiyning "Yusuf va Zulayxo" kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Shoir o'z she'rlarida kishi ruhiy boylikka ma'rifat orqali





erishmog'i mumkinligi haqida uqtirib, nodonlik-johillikka qarshi jamiyatni ilma'rifatga chaqiradi. [2, - p 89.]

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda hukmronlik qilgan Xiva xonlari davri voqealariga bag'ishlangan besh badiiy-tarixiy asar yozdi. Olloqulixon hukmfarmoligi davri (1825–1843) to'g'risidagi "Riyozu-d-davla", Rahimqulixon saltanati voqealari (1843–1846) tasvirlangan "Zubdatu-t-tavorix", Muhammadaminxon (1846–1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlug'murodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi "Jome'u-l-voqeoti sultoniy", Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856–1865) doir "Gulshani davlat" hamda Muhammad Rahimxon soniy – Feruz davri (1865–1910)ga bag'ishlangan "Shohidu-l-iqbol" asarlari shular jumlasidandir. Garchi tarixiy voqealar tasvirlangan bo'lsa ham, bu asarlar saj' asosida yozilgani, poetik ifoda uslubi, turli janrlarga doir nazm namunalari berilgani jihatidan yuksak badiiy ahamiyatga molikdir. Ular tarixiy jihatdan qanchalik ahamiyatli bo'lsa, badiiyatiga ko'ra ham shunchalik qimmatli baland. Shunga ko'ra, bu asarlarni badiiy-tarixiy nasr namunalari deyilsa, to'g'ri bo'ladi. [3, - p 149.]

"Riyozu-d-davla" Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlar silsilasidagi birinchi mustaqil kitobi bo'lib, asarning bu qadar betakror va benazirligi unga keyinchalik "voqe'otu futuhot ta'lifi va tarix tasnifi..." "mavrusiy xizmat va qadimiy hirqat" bo'lib qolishiga zamin hozirladi.

Ogahiy Olloqulixonga bag'ishlab "Riyozi ud-davla" ("Davlat riyozatlari", 1844) asarini yozgan. Bu asarda Ogahiy o'zi to'g'risida shunday yozadi. "Yoshlik chog'larimda, har tarafdin boshimga balo toshi yog'di, hamisha ko'nglimda tinchsizlik va ta'bimda xon hukmi surar edi. Lekin jahondan etgan har xil alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bo'lish bilan bir oz tarqatar edim". [4, - p 1]

Xiva xonligining Olloqulixon davridagi (1825 – 1842 y.y.) eng muhim, tabiiyki, u bilan bog'liq holda atrof mamlakatlar hayotiga oid ayrim voqealarni qamrab olgan bu asarni muarrix 1844-yilda Muhammad Ya'qub mehtarning homiyligida yozgan. Asarda davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvoli, xonlik va qo'shni hududlarda yashovchi turli etnik birliklar munosabati, harbiy safarlar, diplomatik munosabatlar bayoni, ma'rifiy masalalar, ayrim siyosiy arboblari, mashhur shoir, adib, faqihlar zikri, hududlarning tabiati, ko'plab mavze va manzillar tavsifi kabilari mavjud.

Masalan, Ogahiy asarda o'sha paytda 33 yoshida bo'lgan "Ost-Hindiston" kompaniyasi josusi Abbotning Xivaga kelishi haqida shunday yozadi: "Ma'lumi xotiri ashraf bo'lsunkim, chun hamul yil zulqa'da oyining o'n beshida





Hindustondin Haybat sohib otlig' inglís elchisi kelib ostonbo'sliqg'a musharraf bo'ldi".

Bu to'g'rida Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida mufassal ma'lumotlar keltirilgan.

Ogahiy mazkur asari boshqa solnomalari qatori o'z davridan beri muxlis va tadqiqotchilar e'tiborini jalb etib keladi. Jumladan, o'tgan asrning boshlaridayoq Miyon Buzruk Ogahiy tarixiy asarlari xususida maqola e'lon qilgan [5, - p 174.]

"Riyoz-ud-davla"ning tarixiy asar sifatida tadqiqi amalga oshirilgan monografik ish O.Mutalov tomonidan bajarilgan. [Mutalov, 2003] Olim qayd etganidek, Xiva xonligi tarixnavisligining yirik tadqiqotchisi Yu.Bregel fikricha, Xiva xonligi bo'yicha yaratilgan ko'plab asarlar Munis va Ogahiy qo'lyozmalaridan foydalanilmagani uchun ilmiy jihatdan mukammal tadqiqotlar qatoriga kirmaydi. [6, - p 175]

Asarning ayrim jihatlari lingvistik tadqiqi A.O'rozboyev ishlarida kuzatiladi. [O'razboev, 2009, 2018, 2019] Ushbu muhtasham yodnoma hali adabiy, falsafiy jihatdan o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Asarning tili, badiiyati va boshqa jihatlari xususida ko'p gapirish mumkin. Biz quyida asardan olingan bir kichik parcha misolida fikrimizni muxtasar ifodalashga harakat qilamiz.

Ogahiyning tarixiy asarlari o'zbek tarixiy va badiiy nasrining o'ziga xos noyob durdonalaridir. Ushbu asarlar eski o'zbek tilining turli sathlar doirasida bor imkoniyatlarini namoyon qiluvchi muhtasham obidalari sanalishi bilan birga ular XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi o'zbek adabiy tili shakllana boshlaganini e'tiborga olsak, eski o'zbek tilida bitilgan so'nggi ko'lamdor yodgorliklar ham hisoblanadi. [7, p- 176]

Ogahiy tarixiy asarlari tili o'z navbatida rus tili orqali o'zlashgan so'zlarning eski o'zbek tili, shuningdek, davr shevalarida qanday shaklda o'zlasha boshlaganini tasavvur qilishda muhim faktlar bera oladi.

Avvalo, Ogahiyning tarixiy asarlari tili, uning ayrim lisoniy xususiyatlari borasida aniq tasavvur hosil bo'lishi uchun "Riyozu-d-davla" muqaddimasidan bir parcha keltiramiz: "Jahonbonlig' mahomining nigini intizomi va hukmronlig' nizomining sarrishtayi ihtimomi ul podshohi adimu-l-ishtibohning qabzayi iqtidor va sarpanjayi ixtiyorig'a mahkamu musallamdurkim, sipehri nilgunning ayvoni rif'atbunyoni aning binoyi san'atidin mutarrah va rub'i maskunning fazoyi vus'atnishoni aning me'mori qudratidin musattahdur. Azimu-sh-shon sultonlarning farqi davlatig'a aning qullug'i dog'idin afsar va rafe'u-l-makon xoqonlarning jabhayi izzatig'a aning eshigi tufrog'idin zevar; malo'u-l-a'lo





soyirlari aning ibodati futuhotidin bahramand va jarmi g'abro sokinlari aning itoati fuyuzotidin halovatpayvand; xurshidi duraxshon bir lam'ayi nopadiddur bayzoyi hikmatidin va muhiti bekaron bir qatrayi nomufiddur daryoyi qudratidin; vahdatu kasrat azamati gulistonidin shabname, hayulo va suvrat hikmati ummonidin bir name". [8, p – 177]

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Ogahiy tarixiy asar yozib qoldirish bilan bir qatorda, hozirgi adabiyot ma'naviyatiga ham yirik boylik qoldirgan. U yozib qoldirgan asarlari juda qiymatli bo'lishi bilan bir qatorda, eng muhim e'tiborga loyiqdir. Unda keltirilgan ma'lumotlar asosida davrning madaniy hayoti, ijodkorlarning bu davrdagi ijtimoiy ahvoli haqida ham tasavvurlar hosil qilish mumkin. Xivada yaratilgan badiiy asarlar haqida akademik Bartold quyidagicha yozgan edi: "...tarixiy voqealarni bayon etishi va ularda keltirilgan aniq materiallarning ko'pligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixiga doir bizgacha yetib kelgan hamma narsalarni o'zidan ancha orqada qoldiradi".

Hozirgi zamonda yozilayotgan asarlarda Ogahiy yozganidek yozilgan asarlarni uchratishingiz qiyin, chunki Ogahiy davrida oddiy bir asarni yoki g'azallarni yozish qat'iy bir rejalar asosida tuzulgan, ana shundagina asarlarning qiymati, g'azallarning qofiyasi go'zal tarzda namoyon bo'lgan. Ulardek ga'zaliyotga yoki san'atga mehr qo'ygan insonlarni uchratish qiyin. Uning yozgan asarlari butun tarixda eng qiymati yuqori bo'lgan asarlardan bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni." mavzusidagi ilmiy nazariy anjuman materiallar. Toshkent, 2020 yil, 20 may.
2. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>
3. Ogahiy Muhammadrizo. Ta'viz ul-oshiqin. – Toshkent: Fan, 1960.
4. Jabborov N. Ogahiyning adabiy-estetik va ma'naviy-axloqiy mezoni. Ogahiy – shoir, muarrix, tarjimon //Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Urganch.: 2019.
5. Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. II jild. – T.: Adabiyot va san'at, 1972.
6. Ogahiy. Gulshani davlat. Qo'lyozma. O'zR FA Shi Qo'lyozmalar fondi, Inv.79.

